



ABDULLAXON II FAOLIYATI TARIXIDAN

Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li – Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi

Noryigitova Muxlisa Rustam qizi - Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annontatsiya. Ushbu maqolada shayboniyalar sulolasining yorqin hukmdori, tarixda “quruvchi xon” nomi bilan tanilgan Abdullaxon II faoliyati tarixi haqida mavjud manba va adabiyotlar tahili asosida ma'lumotlar keltirilgan. Abdullaxon II tomonidan amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida Buxoro xonligini har bir sohada yetarlicha rivojlangan va o'z taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan.

Kalit so'zlar: Hofiz Tanish al-Buxoriy, Abdullanoma, Iskandar Sulton, Ilono'tdi darasi, Buxoro xonligi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, sug'orish inshootlari, tashqi siyosat, adabiyot va she'riyat, “Xon” taxallusi.

Buxoro xonligida XVI asrda faoliyat ko'rsatgan Shayboniyalar sulolasi ham o'zining ko'p qirrali, qiziqarli tarixiga ega sulolalardan biri hisoblanadi. Ushbu sulola hukmdorlari orasida Abdullaxon II alohida nufuzga ega bo'lib, uning to'liq ismi Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad ibn Abulkayrxondir. Abdullaxon II (1534-1598) Karmana va Miyonqol hukmdori bo'lgan Iskandarxonning o'g'li edi. U yoshligidan noyob iste'dod sohibi bo'lib voyaga yetdi, ayniqsa harbiy san'atda juda mohir bo'lib, tarixchi Hofiz Tanish al-Buxoriy yozganidek, “....o'q uzish, kamon tortish, tig' va nayza urish sirlarini bilihda yuz taqsin, ming ofarin bilan o'sha zamondagi yetuk sultonlardan o'tib ketgan” [Hofiz tanish al-Buxoriy.1999. 93-b.], edi.

Shayboniyalar sulolasining qudratli hukmdori bo'lib etishgan Abdullaxon II (1556-1598) nafaqat yirik davlat arbobi, sarkarda, balki, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat homysi ham hisoblangan. Abdullaxon II Muhammad Shayboniyxon vafotidan keyin parchalanib ketgan mamlakat hududini qayta birlashtirish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog'idan qattiq kurash olib borgan.

Tarixdan ma'lumki, XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida temuriylar davlati kuchsizlanib qolganligidan foydalangan Shayboniyxon boshliq Dashti Qipchoqning chorvador qabilalari Movarounnahr vohalarini egallab oladilar va o'z hokimiyatlarini o'rnatdilar[Hasanboyev.2021. 50-53-b.]. XVI asrning 40-yillaridan shayboniy hukmdor va shaxzodalar o'rtasida hokimiyat uchun jiddiy kurashlar davri



boshlandi. Bu kurashlarda vahimaga tushgan ko'plab shaharlarning hokimlari qochib ketadilar. Faqat Miyonqal'a hokimi Iskandarning 18 yoshli o'g'li Abdullagina qal'ada mustahkamlanib sultonlarning birlashgan kuchlariga qarshi yolg'iz o'zi kurashga otlanadi. 12 kun davom etgan jangdan so'ng sulk bitimi imzolanadi. Bitimga ko'ra, Abdulla Balxga jo'nab ketishga majbur bo'ladi.

1556-yilda Baroqxon vafot etgach uning farzandlari o'rtasida boshlangan taxt vorisligi uchun kurashga aralashib undan ustalik bilan foydalangan Abdulla navbatdagi g'alabaga erishadi. U quvg'inlik yillarini bekorga o'tkazmadi. Eng obro'-e'tiborli o'nta o'zbek qabilasi -qushchi, o'tarchi, kenagas, yuz, jaloyir, major, qipchoq, ming, bahrin qabilalari, shuningdek jo'ybor shayxlari hamda musulmon ruhoniylarining boshqa e'tiborli va qudratli vakillarining himoyasi va qo'llab-quvvatlashiga sazovor boladi [Ahmedov B. 1992. 46-b.].

Abdulla Ilono'tdi yaqinidagi jangda Baroqxonning o'g'li Bobosulton va uning ittifoqchisi Toshkent hokimi Darveshxonning birlashgan kuchlarini tor-mor keltiradi. Abdulla uchun Buxoroga yo'l ochiq edi. U Qarshi, Chorjo'yni egallab, sulton Burhonni mag'lubiyatga uchratib Buxoroga tantanavor kirib boradi. Buxoroni zabit etadi. Buxoro Abdullaxon zamonida siyosiy hokimiyat markaziga aylanadi. Markazi Buxoro bo'lgan davlat Buxoro xonligi deb atala boshlanadi.

Abdullaxon Shayboniylar urf-odatlariga katta hurmat bilan qaraydi va yoshi ulug' bo'lgan o'z amakisini, so'ng otasini xon deb e'lon qiladi. Amalda Abdullaning o'zi ularning nomidan hokimiyatni idora etardi. Otasi Iskandarxon 1561-yili xon deb e'lon qilinadi. U 1582-yil vafotiga qadar xonlik taxtida o'tiradi. Otasi vafotidan so'ng 1583-yil Abdullaxon II o'zini rasman xon deb e'lon qiladi. Abdullaxon (1556-1598) hukmron bo'lgan davrda Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlatga asos soldi. Uning butun hukmronlik yillari urush va jang-u jadallar bilan o'tdi. 1557-yilda Shahrisabzni, 1569-yilda Samarqandni egalladi. 1558-1572-yillarda o'rtada tanaffuslar bilan Badaxshon uchun jang qiladi, Balx va Hisorni qo'lga kiritdi. 1582-yilda Toshkent, Sayram, Turkiston, Farg'onan, 1583-yilda Xuroson, 1595-yilda esa Xorazm taslim etiladi [Shamsutdinov R., 2010. 26-40-b.].

Abdullaxon II Amir Temurdan so'ng Movarounnahrda nisbatan qat'iy siyosat yurgiza olgan yagona va so'nggi davlat arbobi edi. Rossiyaliklar uning davlatiga nisbatan "Buyuk Buxoriya" degan iborani qo'llashgan edilar. Ana shu davrdagi Abdullaxon II ning markazlashgan davlat tuzish borasidagi faoliyati Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» asarida o'zining mukammal ifodasini topgan.

Abdullaxon zamonida Buxoro xonligida dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlanadi, madaniy hayot ancha yuksaladi. Juda ko'p sug'orish



inshootlari: Abdullaxon bandi, Tuyatortar kanali, Okchopsoy to'g'oni va suv ombori, Vahshdan chiqarilgan ko'plab ariqlarning qurilishi dehqonchilikni rivojlantiradi. Samarqand, Buxoro, Marg'ilon, Xo'jand, Andijon, Toshkent, Jizzax, O'ratega, Shahrисабз va boshqa yirik shaharlarda hunarmandchilik taraqqiy qilgan. Samarqand qozi kalonining hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, XVI asrda Samarqandda hunarning 61 turi mayjud bo'lgan. Movarounnahrlik hunarmandlar zo'r san'at bilan turli-tuman metall buyumlar, ip va ipak matolar, a'lo navli qog'ozlar ishlab chiqarganlar[www.wikipedia.uz internet sayti].

Buxoro shahri bu vaqtida ancha kengaytirilgan, devor va harbiy istehkomlar qaytadan qurilgan. Shaharda madrasalar, xonaqoh va karvonsaroylar, yangi rastalar barpo qilingan. Shahar o'rtasidagi tim, ko'chalar chorrahasi ustiga gumbaz-toqlar, hammomlar, karvon yo'llarida sardobalar, karvonsaroylar, ko'priklar qurilgan.

Bu davrda harbiy san'at taraqqiy etgan. Qo'shin tarkibini nayza, qilich, manjaniq, shotular bilan qurollangan otliq va piyoda qismlar tashkil qilganlar. XVI asr ikkinchi yarmidan qo'shin Turkiyadan keltirilgan pitta miltiq va zambaraklar bilan qurollana boshlagan. Abdullaxon II markazlashgan davlatni tuzishda isyonkor zodagonlarni qattiqko'llik va shafqatsizlik bilan jazoladi hamda ma'lum bir davr Buxoro xonligi davlatini yuksaltira oldi.

Abdullaxon davrida Buxoro xonligining Hindiston, Xitoy, Turkiya, Rossiya bilan savdo va diplomatik munosabatlari rivojlangan. 1572-1586-yillari Hindistonda Buxoro xonining elchilari, Buxoroda esa Hindiston podshohi Akbarning elchilari bo'lgan. Abdullaxon II elchilari 1583-yili Moskvadan o'q-dori, ov qushlari, mato olib kelganlar. Bunday elchilik 1589, 1595-yillarda ham takrorlangan[Ahmedov B. 2001. 48-b].

Abdullaxon II ning mamlakat ichki siyosatidagi, davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlash, ayniqsa, pul islohoti o'tkazish yo'lidagi faoliyati natijalari keying davrlarda ham saqlanib qolgan. Uning davrida Buxoro yaqinida Sumitan (Jo'ybor) mavzesida Jo'ybor xojalaridan Abu Bakr Sa'd mozori atrofiga madrasa, masjid, xonaqoh va chorbog', Buxoroda madrasa, hammom, Govkashon, Fathulla qushbegi, Mirakan, Xoja Muhammad Porso, Yangi Chorsu, tim (Abdullaxon timi), Karmana yaqinida Zarafshon daryosi ustiga ko'pri (1582-yil) qurilgan [www.wikipedia.uz internet sayti].

Uning davrida shaharsozlik, ilm-fan taraqqiy etadi. Buxoro madaniyat, ilm-fan markaziga aylanadi. Buxoroda mashhur Abdullaxon kutubxonasi tashkil bo'ladi. Unda mashhur hattotlar kitob ko'chirish bilan mashg'ul bo'lishgan. Abdullaxon II



ning o'zi ham iste'dodli shoir bo'lib «Xon» taxallusi bilan o'zbek va fors tillarida she'r yozgan[Shamsutdinov R....,2010.46-47-b.].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbek milliy davlatchiligi qadimiyatini haqqoniy o'rganish va yoritish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanib, bu voqelik vatani tarixida salmoqli iz qoldirgan sulolalar, ularning buyuk vakillari o'tmishini o'rganishga bo'lgan qiziqish va ma'suliyatni yanada orttiradi. Yuqorida fikr yuritgan XVI asr sulolasining yorqin vakili hisoblangan Abdullaxon II Vatanimiz tarixida o'z islohotlari bilan yorqin iz qoldirgan shayboniy hukmdorlardan biridir. Uning davrida Buxoro xonligi aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti ijobiy o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Abdullaxon II davrida davlatning maqomi har qachongidanda shakllanib, taraqqiyot cho'qqisiga chiqdi, fan, madaniyat o'choqlari bo'lgan shaharlar gullab yashnadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Axmedov B. O'zbek ulusi. Toshkent. 1992.
- 2.Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. Toshkent. 2001.
3. Hasanboyev T. Abdullaxon II hukmdorligi davrida Jizzax vohasi. Vodiynoma jurnali. №-3. Toshkent. 2021. 50-53
- 4.Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomayi shohiy). I-kitob. (fors tilidan S. Mirzaev tarjimasi, ilmiy muharrir, nashrga tayyorlovchi, so'z boshi va izohlar muallifi: B.Ahmedov). Toshkent. 1999.
- 5.Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi (2-kitob. XVI-XIX asrlar davri).Toshkent. 2010.
6. www.wikipedia.uz internet sayti